

**DEKAMERON VA MING BIR KECHA ASARLARI*****Umarova Zuhraxon Ravshan qizi****Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali**English education yo 'nalishi, 2-bosqich talabasi.**Tel: +998 94 087 93 73 E-mail:zexrau@gmail.com****Rishat Anvari****Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali**Suflyor ,katta adabiyot fani o'qituvchisi**Tel: +998 90 214 73 45 E-mail:Resatenver@gmail.com****Umarova Zukhrakhon Ravshan Kizi****Kimyo International University in Tashkent in Namangan Branch,  
2nd-year student, English Education Department.Tel: +998 94 087 93 73**E-mail: zexrau@gmail.com****Rishat Anvari****Prompter, Senior Lecturer of Literature,  
kimyo international university in Tashkent in Namangan Branch .Tel: +998 90 214**73 45**E-mail: Resatenver@gmail.com****Умарова Зухрахон Равшан кизи****Международный университет Кимё в Ташкенте, Наманганский  
филиал.Студентка 2-го курса, направление «Английское образование».Тел:**+998 94 087 93 73**E-mail: zexrau@gmail.com****Ришат Анвари****Суфлёр , Старший преподаватель литературы,  
Международный университет Кимё в Ташкенте, Наманганский филиал.**Тел: +998 90 214 73 45**E-mail: Resatenver@gmail.com****Annotatsiya***

Tarix va bugungi jamiyat hayoti davomida adabiyot jamiyatning ko‘zgusi bo‘lib, uning qadriyatlari, kurashlari, o‘zgarishlarini va ta’sirini aks ettirib kelgan .Italiyaning mashxur yozuvchisi Jovanni Bokkachchoning “**Dekameron**” asari va undagi asosiy qahramoni **Griselda** va “**Ming bir kecha**” Arab ertagi asarlaridagi **Shehrazada** kabi qahramonlarni o’xshashliklari va undagi farqlar hamda voqealarni jamiyatga ta’siri. Ushbu maqolada men ushbu ikki ramziy qahramon o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarni

o'rganish va ularning hikoyalarining kengroq ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishga yondashdim. O'sha davrdagi ayollarni jamiyatdagi o'rni va sabr bardoshi va aqliy salohiyati orqali o'zi va butun jamiyat qizlari hayotini saqlab qolgani haqida hikoya orqali yoritib bermoqchiman . Asarlarni ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilishga xarakat qildim. Shuningdek asarlar asosan xiyonat, ayollarning jamiyatdagi o'rni va bilimlarning kuchi haqida.

**Kalit so'zlar:** Jasorat,sabr,o'lim,aqliy salohiyat, qadr-qiyomat, hiyonat, sinov,baxt.

### **Annotation**

Throughout history and in modern society, literature has served as a mirror reflecting the values, struggles, transformations, and influence of civilization. The renowned Italian writer **Giovanni Boccaccio's "Decameron"** and its central character, **Griselda**, alongside **Scheherazade** from the Arabic folktale collection "**One Thousand and One Nights**", present two remarkable heroines whose similarities, differences, and the impact of their stories on society remain subjects of deep literary and social analysis.

In this article, I explore the parallels and contrasts between these two symbolic figures and examine the broader social consequences of their narratives. Through their patience, resilience, and intellectual strength, these women not only secured their own survival but also influenced the fate of many others in their societies. By narrating their stories, I aim to shed light on the position of women in their respective historical contexts and their role in shaping societal norms. Furthermore, I approach these works from a critical social perspective, analyzing themes of betrayal, the status of women in society, and the transformative power of knowledge. These stories, though rooted in different cultural traditions, ultimately speak to universal truths about endurance, wisdom, and the fight for agency within patriarchal structures.

**Key words:** Courage, patience, death, intellectual ability, value, betrayal, trial, happiness.

### **Аннотация**

На протяжении истории и в современном обществе литература служит зеркалом, отражающим ценности, проблемы, трансформации и влияния цивилизации. Знаменитый итальянский писатель **Джованни Боккаччо** в "Декамерон" изображает **Гризельду**. В знаменитой арабской сказке из "**Тысячи и одной ночи**" представлена **Шахерезада** — две выдающиеся героини, чьи сходства, различия и влияния на общество стали предметом глубокого анализа.

В этой статье рассматриваются параллели и контрасты между этими символическими фигурами, а также их социальные значения . Благодаря стойкости ,терпения и интеллекту они не только обеспечили свое выживание,

но и повлияли на судьбы окружающих. Анализируя их истории, мы освещаем положение женщин в соответствующих исторических контекстах и их роль в формировании общественных норм. Также исследуются темы предательства, социального статуса женщин и преобразующей силы знаний. Эти произведения, принадлежащие разным культурным традициям, раскрывают универсальные истины о выносливости, мудрости и борьбе за самостоятельность в рамках патриархального общества.

**Ключевые слова:** Мужество, терпение, смерть, интеллектуальные способности, ценность, предательство, испытание, счастье.

### Dekameron

Jovanni .Bokkachcho uni yozishidan maqsadi insonlarning dono bo'lishlariga va jamiyatda o'zlarini aqilli va munosib ravishda tutishga e'tibor qaratadi . Hikoya asosan sevgi , baxt , kulgi , va o'lim kabi hayotiy mavzularni kitobxonlarga oson va ta'sirli usullarda yoritib beradi . W illiam James shunday degan edi " Biz baxtli bo`lganimiz uchun kulmaymiz – aksincha ,kulganimiz uchun baxtli bo`lamiz ." O'rta asrlar Italiyasida vabo epidemiyasi davomida odamlar juda qayg'uli va istirobli bir holatda edi. Albert Kamyu yozganidek "Tarixda urushlar qanchalik ko`p bo`lsa vabolar ham shunchalik ko`p bo`lgan ,ammo har doim vabo ham , urush ham odamlarni birdek kutilmaganda qo`lga oladi ."Asardagi hikoyalar esa ularga vaqtincha bo`lsa-da bu muammolarni unutishga va chiroyli hamda qayg'usiz hayot haqida oz bo`lsada tasavvur eta olishlariga yordam berdi . Shunday qayg'u va istirob bilan o'tayotgan kunlar arafasidagi bu asardagi hikoyadagi qahramonlar ya'ni 7 ayol 3 erkakdan iborat guruh har kuni navbatma – navbat o'zlarining hikoyalarini aytib turli kundagi turli hikoyalarini yoritib berishadi hikoya so'zlash orqali.Ularning hikoyalari farqli bo'lib o'ziga xos mavzu xulosalarga, o'ziga xos ovozga hamda o'zgacha taassurotga ega . Hikoyachilar vaboni unutish uchun bir-birlariga voqealar aytib o'zlarini xursand qilishadi .Zeroki ta'sirli hikoyalar orqali qayg'uli kunlar, dard iztiroblar unutilgandek edi go'yo.Hikoya nafaqat muammoni unutish uchun balki bir-birlariga yaqinlik va madaniy hamkorlik hissini beradi

### Ming bir kecha

Asarda asosiy qahramon bo'lmish Shahriyor ismli podshoh o'z xotini tomonidan xiyonatga uchraydi , bu hodisa podshohni juda qattiq xafa qiladi va uning ayollarga bo'lgan dunyo qarashini nafratga aylantiradi. Bu hodisa orqali podshoh ya'ni Shahriyor barcha ayollarni xiyonatkor deb o'ylaydi Shundan so'ng podshoh har kuni bir kunlik nikoh qurib, har kuni yangi qizga uylanib tong otgach uni o'ldirishni odat qiladi xatto u o'zini xotinini ham o'ldiradi.Bu orqali u hech qachon qayta xiyonatga uchramasligini o'ylaydi va vazirning qizi Malika Shahrazade ismli go'zal, jasoratli va aqli qiz esa o'zining tafakkuri va aqliy salohiyati orqali , o'zini podshohga qurban

qiladi va turmushga chiqadi . U har kuni podshohga xikoya o'qib beradi lekin tugatmaydi shuning uchun shoh keyingi kechani kutadi. Shahrazadening hikoyalari shu qadar ta'sirli va ma'noli ediki nafaqat shohni balki uning dunyo qarashini shunindek ayollarga bo'lgan fikrini o'zgartiradi . **Chinweizu** ta'kidlashicha “ Qanday inson boo'lib yetishishimiz , asosan , qanday hikoyalarda tarbiyalanganimizga bo'gли ” Shoh bu hikoyalardan saboq oladi va oxir oqibat Shahrazadeni boshqa ayollar kabi o'ldirish qaroridan voz kechadi.

### **Griselda in Decameron**

Jovanni Bokkachcho tomonidan yozilgan "Dekameron" asaridagi har bir kun hikoyasi turli xil va o'zgacha, ayniqsa ( o'ninchi ) kuni dagi o'ninchi hikoyadagi Griselda ismli ayol haqida so'z yuritiladi . Bu hikoya sabr, sadoqat va fidoiylik haqida mavzu keng yoritib beriladi. Griselda oddiy dehqon qiz edi. U juda go'zal, aqilli va xushmomilali edi . Suluzzo Gersogi Gualtieri unga uylanishni xoxlamadi ammo xalqning talabiga binoan u Griselda bilan turmush qurdi. Gualtieri majburan va ko'ngilsiz nikohi va rafiqasidan qoniqmasligi va ayoliga bo'lgan ishonchi sust bo'lganligi sababli, rafiqasining sabrini va uning munosabatini sinashga qaror qildi va unga shafqatsiz sinovlar bera boshladi . bu sinovlarning shavqatsiz deb fikr yuritilishiga sabab shundaki Gualtieri Griseldadan tug'ilgan qizni o'ldi deb aytadi aslida qizini yashirib qo'ygan bo'ladi va aslida bu hodisalar orqali griseldaning sabri va bardoshi sinovdan o'tayotgan bo'ladi. Shunday bo'lsada oradan vaqt o'tib o'g'il farzandli bo'ladi va o'g'ilni xam xuddi shu tarzda olib ketadi. Griselda barchasiga sabr qiladi. Gualtieri vaqt o'tgach ajrashishni va boshqa ayolga uylanishni e'lon qiladi. U Griseldani saroydan haydaydi va vaqtlar o'tgach oxir-oqibat Gualtieri haqiqatni oshkor qiladi farzandlarini qaytaradi va sevgisini tan oladi . Ular o'z farzandlari bilan birgalikda baxtli hayot kechirishadi. **Francesco Petrarch Griselda** haqida shunday fikr bildirgan "*Men bu hikoyani qayta yozishdan maqsadim ayollarni Griselda kabi sabr qilishga undash emas edi, chunki bu deyarli taqlid qilib bo'lmaydigan fazilat. Balki bu ayolning sadoqati orqali o'quvchilarni Xudoga shunday sobitlik bilan bo'ysunishga ilhomlantirish edi.*"

(Petrarka Bokkachcho hikoyasini tarjima qilib, Griselda sabrini deyarli insoniy bo'lmagan deb tan oladi, lekin uni axloqiy chidamlilik namunasi sifatida ko'rsatadi.)

### **Xulosa.**

Ikki asar xam jamiyatda o'z o'rnini topgan va haligacha saqlab kelayotgan asar hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki ikki asar xam jamiyatga va undagi turli insonlarga ma'naviy va ruhiy foyda va ozuqa bergen. Shuningdek, muammolarni oson unutishga, insonlarni to'g'ri yo'lida yurishlariga jalb qilishda yordam beradi deb ayta olaman . Dekameron asari vaboni hikoyalari orqali unutishga undagan bo'lsa, Ming bir kecha asari esa ko'plab insonlarni hayotini bir qizning aqliy va ma'naviy salohiyatidan unumli foydalangan holda aytgan hikoyalari orqali asrab qolgan.

Asarlardagi ikki ayolni xayoti juda ta'sirli va inson o'rgana oladigan ma'noviy jihatlarga boy asar deb tafakkur yuritsak mubolag'a bo'lmaydi. Shehrazade o'lishini bilsa ham o'zini qurban qilishdek jasorati va Griselda esa sevmasligini bilib ham turmushga chiqishi esa xaqiqiy ayol jasorati sifati kabi alohida e'tirof etishga arziydigan va o'rnak bo'la oladigan insoniy hislatlardir. Ikki ayol jasorati, matonati va eng muhimi sabr,bilim bilan ish tutishganiga hayotlari ijobiy tomonga o'zgarib ketdi. Shuni ayta olamanki, inson doim izlanish kerak va hayoti davomida olgan bilim va malakalarini to'g'ri va mulohazali holda ishlatishi darkordir.

#### **Foydalanilgan manbaalar:**

1. **National Storytelling Network.** (n.d.). *Storytelling quotes*. Retrieved March 1, 2025, from <https://storytelling.org/storytelling-quotes/>
2. **Decameron Analysis.** Scribd. Retrieved February 20, 2025, from <https://www.scribd.com/document/413588270/Decameron-Analysis-doc>.
3. **Scheherazade, Arabian Nights Wiki.** Fandom. Retrieved February 20, 2025, from <https://arabiannights.fandom.com/wiki/Scheherazade#:~:text=Burton's%20translation%20of%20The%20Nights,relating%20to%20antique%20races%20and>.
4. **The Eclectic Light Company.** (n.d.). *The Decameron: The suffering of Griselda*. Retrieved February 20, 2025, from (insert URL).
5. **George Mason University Center for the Advancement of Well-Being.** (n.d.). *Famous quotes on laughter and well-being*. Retrieved March 1, 2025, from <https://wellbeing.gmu.edu/famous-quotes-on-laughter-and-well-being/>
6. **Petrarch, F.** (n.d.). *Familiar letters* (P. Sadlon, Ed.). Retrieved March 1, 2025, from [https://petrarch.petersadlon.com/read\\_letters.html?s=pet06.html](https://petrarch.petersadlon.com/read_letters.html?s=pet06.html)
7. **Camus, A.** (n.d.). *La Peste* [The Plague]. Goodreads. Retrieved March 1, 2025, from <https://www.goodreads.com/work/quotes/2058116-la-peste?page=2>